

BOSHLANG'ICH SINFDA FRANSUZ TILI FONETIKASINI O'RGANISH

Mahmudov Samandar

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti talabasi.

Abstrakt: maqolada fonetikani o'qitish orqali o'quvchilarda adabiy talaffuzni shakllantirish, imloviy savodxonlikni, so'z boyligini oshirib borish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmun, usul, vositalarini ishlab chiqishni takomillashtirish to'g'risida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, fonetika, talaffuz, urg'u, imloviy savodxonlik.

Kirish: Jahonda globallashuv jarayoni tezlashayotgan bir paytda tillarni asrash, ularni takomillashtirish va o'qitish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Bugungi kunga kelib til ta'limiga doir turli interfaol usullar amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Har qanday tilning asosini uning tovushlar tizimi, ya'ni fonetikasi tashkil qiladi. Ingliz, fransuz, nemis va boshqa rivojlangan xorijiy tillarni o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda fonetikaga, xususan, talaffuzga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida fonetik mashqlardan unumli foydalaniladi. Dunyo tajribasida talaffuz mashqlari bir bo'lim yoki bir mavzu bilan tugab qolmaydi.

Asosiy qism: Darsliklarda keltirilgan mashq turlari o'quvchida to'g'ri talaffuz ko'nikmalarining osongina shakllanishiga olib keladi. Dunyoda tillarni o'qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo'lib, dars jarayonida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish nutqiy kompetensiyalarning rivojlanishiga olib keladi. Shu o'rinda chet tillarni o'qitish bilan ona tilini o'qitish maqsadlari ma'lum ma'noda farq qilinishini, ularni bir chiziqda tasavvur qilib bo'lmasligini ta'kidlash lozim. Shunga qaramay, ingliz tilini o'rganish bo'yicha belgilangan darajalar ona tiliga ham tatbiq qilinmoqda.

Til o'rganishga qo'yilgan mazkur talablar asosida tinglash, gapirish, o'qish va yozish malakalari shakllanadi. Bunday yondashuvdan ijodiy foydalanib, ona tili darslarini ham samarali tashkil etish mumkin. Rivojlangan davlatlarning til o'qitish metodikasida gapirish (speaking), yozish (writing) kabi mashg'ulotlar, asosan, mashqqa tayanadi, mashq va topshiriq aniq farqlanadi, o'z o'rnida ishlatiladi. SHu sababli ularning til o'rganish kompetentligi yuqoridir. Shuningdek, PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash tizimlari orqali dunyoning ko'plab davlatlarida o'quvchilarning o'qish savodxonligi aniqlanmoqda. Respublikamizda ham ona tili o'qitish kompetensiyaviy yondashuvga asoslandi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimidagi fonetikaga doir o'quv materiallari mazmunini takomillashtirish, o'quvchilarda adabiy talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, uning natijasida imloviy savodxonlikni oshirish bugungi kunda davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Fonetika o'qitish orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Zero, Prezidentimiz tomonidan "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", – deb ta'kidlanishi ona tili ta'limi

oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin hamda savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi.

Shu ma'noda umumiy o'rta ta'lim tizimida fonetika o'qitish orqali o'quvchilarda nutqiy hamda lingvistik kompetensiyalarni, xususan, adabiy talaffuz ko'nikmasini to'la shakllantirish, imloviy savodxonlikni rivojlantirish, so'z boyligining oshishiga zamin yaratish va mustaqil fikrlashga o'rgatish uchun fonetikaga doir o'quv materiallarining metodik ta'minotini takomillashtirish zarurati mavjud. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga turli yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Biroq ona tili ta'limida shunday mavzular bo'ladi, ularni o'qitishda didaktik o'yinlardan ko'ra amaliy ishlash orqali kerakli natijalarga erishish mumkin. Ta'kidlash kerakki, talaffuzning imloga va aksincha, yozuvning og'zaki nutqqa ta'siri bo'lishi tabiiy. Fan-texnika qanchalik shiddat bilan rivojlanmasin, baribir, yozma nutq muhim bo'lib qolaveradi.

Bugungi kunda o'quvchilar nutqida imloviy xatolar juda ko'p uchrayotganining sababi ham fonetika o'qitish, talaffuz masalasi bilan bevosita bog'liqdir. O'quvchilar o'z ona tilidan mahorat bilan samarali foydalana olsa, o'z fikrlarini ta'sirchan, tushunarli bayon qila olsa, ajdodlardan qolgan boy ilmiy, badiiy merosni chuqur anglash darajasida o'z tilini bilsa, ana shunda ona tili ta'limi o'z maqsadiga erishgan bo'ladi. Buning uchun ona tili darslarida foydalaniladigan o'quv materiallari nihoyatda puxta ishlangan bo'lishi, ko'nikmalarni kompleks tarzda shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bir paytning o'zida ham talaffuz, ham imlo, ham so'z boyligini oshirish, qolaversa, mustaqil fikrlashga yo'naltirishga sharoit yaratish takrorlanish jarayonini hosil qiladi, bu esa nutqiy mahoratni oshiradi.

Aslida ona tili darslarining asosiy maqsadi bo'lgan o'quvchilarda nutqiy malakalarning shakllanishiga zamin yaratuvchi fonetika, orfografiya, orfoepiya, punktuatsiya bo'limlarini o'qitishda mashqlardan muntazam foydalanish, qolgan bo'limlarni esa, topshiriqlar asosida o'qitish samaraliroq natija beradi.

Har qanday ma'lumotni qay darajada o'zlashtirish tinglovchining xohish irodasiga bog'liqdir. Psixologik nuqtai nazardan darsda, ayniqsa, yangi dars bayonida o'quvchini qiziqitirish lozim. Aks holda, harakat samarasiz bo'lishi mumkin. Shu ma'noda fonetika o'qitishda ham turli noan'anaviy dars usullaridan foydalanish lozim. "Kim xattot?" usuli. Sinf uch guruhga bo'linadi.

Qur'a tashlash yo'li bilan ulardan biri ekspert, qolgan ikkisi bahslashuvchi jamoalarga ajratiladi. Ekspert guruhi jamoasi x va h undoshi ishtirok etgan so'zlarni aralash holda aytaveradi, bu so'zlardan bir jamoa tarkibida x undoshi ishtirok etgan so'zlarni, ikkinchi jamoa tarkibida h undoshi ishtirok etgan so'zlar qatorini yozib boradilar.

Belgilangan vaqtda jamoalar ishi to'xtatiladi. Ekspertlar jamoasi ikkala guruh ishlarini tekshirib beradi. Ish yakunida o'qituvchi uchala guruh ishlarini ko'rib chiqib baholaydi. "Juftini top!" usuli. Bunda tutuq belgisi ishtirok etgan so'zlarning paronim juftlarini topish uchun uchta jamoa bellashadi. Sardorlar bellashgan paytda qolganlar tutuq belgisi ishtirok etgan so'z qatnashgan xalq maqollaridan topib turadi. Kimda misol ko'p bo'lsa, o'sha jamoa g'olibdir. 5 minut vaqt. Tutuq belgisi ishtirok etgan so'zlarning talaffuzida ham kamchiliklar uchraydi. Darsliklarda mazkur belgining uch vazifasi haqida batafsil ma'lumot qoida shaklida berilgan bo'lsa-da, talaffuzda chalkashlik mavjud. Ya'ni, unidan keyin kelganda ham, undoshdan keyin kelganda ham ajratib aytilaveradi. Bunday holatda ham talaffuz mashqlari, topshiriqlar va noan'anaviy usullardan foydalanish mumkin.

Xulosa

Xulosa sifatida shuni ayta olamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga fransuz tilidan dars berishda ularning psixologik xususiyatlarini va yoshini inobatga olgan holda darslarni tashkillashtirish, ko'rgazmali qurollardan va tarqatma materiallardan to'g'ri foydalanish juda muhimdir.

Chet tillarni o'qitishda amaliy mashg'ulotlar, interaktiv dars usullari, o'yinlar va motivatsiya asosida dars o'tish, grammatik va leksika bilan birga adabiy talaffuz ko'nikmasini shakllantirish keng qo'llaniladi. Bu usullar o'quvchilarning tilni samarali o'rganishiga yordam beradi va ularga mustaqil fikrlash, bayon qilish qobiliyatlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Fonetika o'qitish esa nutqiy mahoratni rivojlantirishda asosiy ahamiyatga ega bo'lib, so'z boyligini oshirish, mustaqil fikrlash va bayon qilishga yordam beradi. Fonetik usullar bilan o'quv materiallarini kompleks tarzda shakllantirish va o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin va tushunarli bayon qilishlari uchun darslar tashkil etish muhimdir.

Fransuz tili o'rganishda yosh o'quvchilarga qiziqishlarini olg'a olish, ularning motivatsiyasini oshirish, darslarni interaktiv va o'yinlar bilan muhim qilish, grammatik va leksikani o'rganishga qulayliklar yaratish, va fonetikaga alohida e'tibor qaratish katta ahamiyatga ega. Bu usullar o'quvchilarga mustaqil fikrlash, bayon qilish va nutqiy mahoratlarini oshirishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamroev G'H. Fonetikaning umumta'lim maktablarida o'qitilishiga doir ayrim mulohazalar // -Toshkent, TDPU, 2018. -B. 485-487.
2. Mirzayev F. Fonetika o'qitishda xalq maqollaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida 2010. -B. 116-118.
3. Roziqova M., Boltaboyeva M., Axatova R. Olti yoshli bolalarning maktabga umumiyetuklik darajasini o'rganish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent 2014
4. Tolerantlik-muhim-ijtimoiy-pedagogik-muammo-sifatida. pdf
5. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
6. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
7. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
8. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
9. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
10. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
11. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.

12. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory And Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
13. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." *Конференции*. 2021.
14. Ithomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
15. Ithomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
16. Ithomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
17. Ithomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
18. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
19. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
20. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
21. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2023,[1/4] (2023).
22. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Sariev Sh. *Ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik*. T.: “Noshir” 2009 yil
23. Xudoyberganova M., Muxtorova M. *3-sinfda ona tili darslari*. T.: “O‘qituvchi”, 2005 yil.
24. Abdullayeva Q. *Birinchi sinfda nutq o‘stirish*. T.: “O‘qituvchi” 1998 yil.
25. Umarova X. *Qiziqarli grammatika*. T.: “O‘qituvchi” 2002 yil.